

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***60810700 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta
ishlash texnologiyasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining***

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



“60810700 – Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi” ta‘lim yo‘nalishi

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil “25” iyun dagi 218-sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur malaka talablari “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlari va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanishi	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalar.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar	7
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
4.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	8
	Bibliografik ma’lumotlar	11
	Kelishuv varag‘i	12

1. Umumiy tavsifi.

60810700 – Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta‘lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta‘limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60810700 – Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv-uslubiy boshqarma (bo‘limi) boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

ta‘lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari;

ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

oliy ta‘lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

“Qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi va veterinariya” sohasidagi bakalavr ta‘lim yo‘nalishi bo‘lib, don va moyli ekin mahsulotlari, meva-sabzavotlar va uzum, tuganak va ildizmevalar, poliz mahsulotlari, go‘sht, sut va baliq mahsulotlarini hamda vinochilik, iste‘mol etil spirit va alkogolli mahsulotlarni saqlash va qayta ishlashda innovatsion texnika va texnologiyalarni tadbiiq etish, mahsulotlar sifatini nazorat qilish, qadoqlash, logistika ishlarini tashkil etish bilan bog‘liq kasbiy faoliyatida texnik vositalardan oqilona foydalanish usul va uslublari yig‘indisini o‘z ichiga oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari:

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Vazirlar mahkamasi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi va ilmiy tekshirish instituti, Bojxona qo‘mitasi idoralari, Oziq-ovqat uyushmasi, qishloq xo‘jalik hamda vinochilik, iste‘mol etil spirit va alkogolli mahsulotlarini tayyorlash, saqlash va qayta ishlash korxonalari va tashkilotlarining boshqaruv tizimlari; g‘oyadan bozorgacha yangi mahsulotlarni ishlab chiqish, tashqi bozorda raqobatbardosh yuqori sifatli oziq-ovqat, shuningdek, vinochilik, iste‘mol etil spirit va alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqarish, mahsulotlarining strukturaviy va mexanik xususiyatlarini aniqlash va sensorli baholashni o‘tkazish, mahsulotlarining funksional xossalarini va tabiiyligini aniqlash, saqlash muddatini tahlil qilish;

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi sohasidagi rivojlanish tendentsiyalari, genetik modifikatsiyalangan mahsulotlar, fizik-kimyoviy xossalari va metrologiyasi, oziq-ovqat qo‘shimchalaridan foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligi va mikroorganizmlarni

identifikatsiyalash, mahsulotlar aylanmasida sifat tizimlarini innovatsion rivojlantirish, tadbirkorlik va marketing, oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlashning ilg‘or yechimlari;

agrosanoat majmui korxonalari, tashkilotlar, fermer xo‘jaliklarida mehnat faoliyatini, ishlab chiqarishni va boshqaruv sohasida ishni tashkil etish va boshqarish, bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash; yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish.

60810700 – Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgan taqdirda, professional ta‘lim muassasalarida ta‘limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyat;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati;
- tadbirkorlik faoliyat;
- muhandis-texnologik-ishlab chiqarish faoliyat.

1.2.4. Kasbiy vazifalari

60810700 – Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatda:

ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta‘minlashga bag‘ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o‘rganish va tizimlashtirish;

tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta‘minlash borasidagi muammoli mavzular bo‘yicha axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma‘lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tadbiq etish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy bilimlarni qo‘llash orqali boshqarish;

tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo‘linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish,

mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

birlamchi ishlab chiqaruvchi bo‘g‘in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;

ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalariga investisiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo‘llash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

Axborot-tahliliy faoliyatda:

boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma‘lumot to‘plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini yuritish;

loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatda:

muhandis-texnolog darajasida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarida standartlarni qo‘llash va ulardan foydalanish;

ilmiy va amaliy faoliyat davomida avtomatlashtirilgan tizimlarda asboblarning ishlashi;

qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida qurilma va jihozlardan, qadoqlash materiallaridan samarali foydalanish;

mahsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish xizmatini tashkil etish;

mahsulotlar sifatini texnokimyoviy nazorat qilish;

ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini rejalashtirishda ishtirok etish;

oziq-ovqat xavfsizligi uchun mahsulotlarni monitoring qilish;

ilg‘or zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda mahsulotlarni qayta ishlashning yangi texnologiyalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

tabiiy resurslarni muhofaza qilish va shaxsiy xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash;

kasbiy etikaga rioya qilish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

biznesni tashkil etish;

biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

og‘zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va me‘yorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g‘oya, taklif, ta‘rif va xulosalami mantiqiy, to‘g‘ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olish;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, malaka oshirish va o‘z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o‘zgartirishga qodir bo‘lishi;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish.

me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo‘llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotni tayyorlashni, ma‘lumotlar bazasini yuritishni bilish;

ozuq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta‘minlashda me‘yoriy hujjatlarga mosligini tekshirish qobiliyatiga ega bo‘lish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash bo‘yicha zamonaviy qurilmalardan foydalanish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash korxonasida texnologik jarayonlarni boshqarish;

mahsulotlarni ishlab chiqarishda resurs tejamkor faoliyatni tashkil etish va ikkilamchi resurslardan samarali foydalanish;

sohadagi ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tadbiiq etish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. O‘quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T/r	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklari va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestr
1.00		Umumiy majburiy fanlar	4920	164	
1.01	O‘EYTB1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	DINB1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	FALB1304	Falsafa	120	4	3
1.04	XJTNB11208	Xorijiy til	240	8	1,2
1.05	O‘T O‘SQB1204	O‘zbek (rus) tili. O‘zbek tilini sohada qo‘llash	120	4	2
1.06	JMSB1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.07	ENMSB1104	Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika	120	4	1
1.08	ANFKBKB1206	Analitik, fizik-kolloid va bioorganik kimyo	180	6	2
1.09	BO‘FZB11208	Botanika va o‘simliklar fiziologiyasi	240	8	1,2
1.10	MTKB1106	Mutaxassislikka kirish	180	6	1
1.11	MHKGB1104	Muhandislik va kompyuter grafikasi	120	4	1
1.12	OOKTB1206	Oziq-ovqat kimyosi va tahlili	180	6	2
1.13	ETRASB13408	Elektrotexnika va raqamlashtirish asoslari	240	8	3,4
1.14	MKBB1506	Mikrobiologiya	180	6	5
1.15	MTB1506	Muhandislik termodinamikasi	180	6	5
1.16	YIB1504	Yashil iqtisodiyot	120	4	5
1.17	QXMSSB15608	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini standartlashtirish va sertifikatlash	240	8	5,6
1.18	ATJQB1706	Asosiy texnologik jarayonlar va qurilmalar	180	6	7
1.19	AGBAB1706	Agrobiznes asoslari	180	6	7
1.20	EAMMB1706	Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi	180	6	7
Meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi bo‘yicha majburiy fanlar					
1.21	MSB13408	Mevachilik va sabzavotchilik	240	8	3,4
1.22	QXMQTB13408	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini quritish texnologiyasi	240	8	3,4
1.23	BSEMIBSB15608	Bog‘dorchilik va sabzavot ekin mahsulotlariga ishlov berish va saqlash	240	8	5,6
1.24	MSQITB15610	Meva-sabzavotlarni qayta ishlash texnologiyasi	300	10	5,6
1.25	OOMSBB1606	Oziq-ovqat mahsulotlarini sensorik baholash	180	6	6
1.26	QIKJLAB 1706	Qayta ishlash korxonalarini jihozlari va loyihalash asoslari	180	6	7
1.27	OOMQQMB1706	Oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlash va qadoqlash materiallari	180	6	7
2.00		Tanlov fanlari	960	32	3,4,6
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	960	32	3,4,6

Kvalifikatsiya		Muhandis-texnolog (meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi bo‘yicha)			
Don va texnik ekin mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi bo‘yicha majburiy fanlar					
1.21	O‘SIMB13408	O‘simlikshunoslik	240	8	3,4
1.22	DSQITB13408	Donni saqlash va qayta ishlash texnologiyasi	240	8	3,4
1.23	DTEMQQMB 15608	Don va texnik ekin mahsulotlarini qadoqlash va qadoqlash materiallari	240	8	5,6
1.24	TEXASQITB 15610	Texnik ekinlar xom ashyosini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi	300	10	5,6
1.25	QIKJLAB1606	Qayta ishlash korxonalarini jihozlari va loyihalash asoslari	180	6	6
1.26	DTEMSOB 1706	Don va texnik ekin mahsulotlarini saqlash omborlari	180	6	7
1.27	QXMQIQTEMFB 1706	Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlashda qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanish	180	6	7
2.00		Tanlov fanlari	960	32	3,4,6
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	960	32	3,4,6
Kvalifikatsiya		Muhandis-texnolog (don va texnik ekin mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi bo‘yicha)			
Chorvachilik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi bo‘yicha majburiy fanlar					
1.21	CHAB 15608	Chorvachilik asoslari	240	8	5,6
1.22	GMSQITB 13408	Go‘sht mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi	240	8	3,4
1.23	QIKLAB 13408	Qayta ishlash korxonalarini loyihalashtirish asoslari	240	8	3,4
1.24	SMSQITB 15610	Sut mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi	300	10	5,6
1.25	CHMICHTB 1606	Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi	180	6	6
1.26	CHMSSUJB.1706	Chorvachilik mahsulotlarini saqlashda sovutish uskuna va jihozlari	180	6	7
1.27	CHMQIQTEFMB 1704	Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlashda qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanish	180	6	7
2.00		Tanlov fanlari	960	32	3,4,6
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	960	32	3,4,6
Kvalifikatsiya		Muhandis-texnolog (chorvachilik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi bo‘yicha)			
Vinochilik, iste‘mol etil spirit va alkogolli mahsulotlar texnologiyasi bo‘yicha majburiy fanlar					
1.21	AMB13408	Ampelografiya	240	8	3,4
1.22	SKJLAB13408	Soha korxonalarini jihozlari va loyihalash asoslari	240	8	3,4
1.23	IESAMTB15608	Iste‘mol etil spirti va alkogolli mahsulotlar texnologiyasi	240	8	5,6
1.24	VTB156010	Vinochilik texnologiyasi	300	10	5,6
1.25	SPAIT1606	Solod, pivo va alkogolsiz ichimliklar texnologiyasi	240	6	6
1.26	QICHTB1706	Qand ishlab chiqarish texnologiyasi	180	6	7
1.27	VBMBB1706	Vino va bijg‘ish mahsulotlari biokimyosi	180	6	7

“60810700 – Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi” ta‘lim yo‘nalishi

2.00		Tanlov fanlari	960	32	3,4,6
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	960	32	3,4,6
	Kvalifikatsiya	Muhandis-texnolog (vinochilik, iste‘mol etil spirit va alkogolli mahsulotlar texnologiyasi bo‘yicha)			
		Jami	5880	196	
		Malakaviy amaliyot	1320	44	2,4,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi			8
		Jami	1320	44	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma‘lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OXS 01.040.01

Tayanch so‘zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta‘lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat turi, kredit, modul, bakalavriat, o‘quv reja, fan dasturi, o‘quv jarayoni, malakaviy amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, baholash, ichki nazorat, yakuniy davlat nazorati, davlat-jamoatchilik nazorati, tashqi nazorat, moddiy-texnik baza, davlat attestasiyasi, mustaqil ta‘lim, o‘quv fanlari bloki, oliy ta‘lim muassasasi, ta‘lim jarayoni, ta‘lim sifati nazorati, profil, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot jarayonlari, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Vazirlar mahkamasi huzuridagi O‘zstandart agentligi va ilmiy tekshirish instituti, Bojxona qo‘mitasi idoralari, Oziq-ovqat uyushmasi, rivojlanish tendentsiyalari, genetik modifikatsiyalangan mahsulotlar, fizik-kimyoviy xossalar, metrologiyasi, oziq-ovqat qo‘shimchalari, oziq-ovqat xavfsizligi, mikroorganizmlar, identifikatsiyalash, agrosanoat majmui, korxonalar, tashkilot.

ISHLAB CHIQILGAN:
Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor S.Ya. Islamov

2024 yil

M.O'

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor M. Boltabayev

2024 yil " 20 " 06

O'zbekiston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi vazirligi
Hm-fan, innovatsiyalar va ta'limni
rivojlantirish boshqarmasi

Boshlig'i T. Ataqulov

2024 yil " 12 " 06

M.O'

Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Rektor B.Sh. Usmonov

2024 yil

M.O'

ChEII «Toshkentvino kombinati» AJ

Bosh derektori M.A. Maxmudov

2024 yil " 11 " 06

M.O'

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik
ilmiy tadqiqot instituti

Direktori R. Nizomov

2024 yil

M.O'

«G'alla-Alteg»
AJ boshqaruv raisi

Direktori J. Xoshimxonov

2024 yil « 11 »

06

M.O'